

Hisob shartnomasi № A-63

Tovar yetkazib berish bo'yicha

Toshkent sh.

« 26 » 01 2022 yil.

«ASIA PHARM LYUKS» MChJ (keyingi o'rinlarda "Sotuvchi" deb yuritiladi) nomidan Ustav asosida harakat qiluvchi Rahbar Zaxriddinov K.A., va **ZANGIOTA TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI**, (keyingi o'rinlarda "Sotib oluvchi" deb yuritiladi), nizom asosida harakat qiluvchi **K.L.Raximov**, ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Sotuvchi Sotib oluvchiga quyida kursatilgan miqdor va narxda tovar yetkazib berish majburiyatini oladi, Sotib oluvchi esa uz navbatida tovarni qabul qilib olib haqqini to'lash majburiyatini oladi:

№	Tovar nomi	O'lch. Bir.	Miqdori	Narxi 1 o'lch. bir. u-n (So'm, QQSsiz)	QQS Narxi	To'lov miqdori (So'm, QQS bilan)
1	Системы инфузионные однократного применения стерильные	шт	300	3 400,00		1 020 000,00
2	Скарификатор одноразовый стер. "Медикон ЛТД"	шт	10 000	131,00		1 310 000,00
3						
4						
5						
6						
7						
8						
9						
10						
Jami:						2 330 000,00

1.2. Ushbu shartnoma bo'yicha yetkazilgan tovarlar uchun to'lov, mazkur shartnomaning 1.1. bandida belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

II. TOVARNING NARHI VA SIFATI

2.1. Yetkazib berilayotgan tovarlarning sifati va amal qilish muddati shartnomani tuzish paytida ushbu turdagi mahsulot uchun qo'yiladigan standartlar va texnik shartlarga muvofiq bo'lishi kerak. Tovarlarining yaroqlilik muddati umumiy saqlash muddatining 80 foizidan kam bo'lmashligi kerak.

2.2. Agar tovarning sifati ushbu shartnoma talablariga javob bermasa, Sotib oluvchi Sotuvchiga hisob fakturani imzolagan kundan boshlab 30 kun ichida da'vo ariza berish huquqiga ega. Sotib oluvchi tovarlarni saqlash shartlariga rioya qilishi shart. Tovarlarini noto'g'ri saqlash yoki sotib oluvchining harakati/harakatsizligi tufayli yuz bersa, buning uchun Sotuvchi javobgar bo'lmaydi.

2.3. Tovarlarini miqdori va sifati bo'yicha qabul qilish Sotib oluvchining omborida amalga oshiriladi va tomonlar imzolagan xisob- varak bilan tasdiqlanadi. Tovarlarini yetkazib berish sanasi tomonlar xisob-varaqni imzolagan sana hisoblanadi.

2.4. Tovarlarini qabul qilishda, Sotib oluvchi tovarlarni shartnoma hisob-varag'i shartlariga muvofiqligini va assortimentini, miqdorini, to'liqligini tekshiradi. Agar tekshirish natijasida yetkazib berilgan tovarlarning ko'rsatilgan hujjatlarga mos emasligi aniqlansa, Sotuvchi tomonlarning kelishuviga asosan o'z mablag'lari evaziga Sotib oluvchining omboriga tovarlarni almashtirish/ yetkazib berish majburiyatini oladi.

2.5. Tovar sotuvchining omboriga qabul qilingandan so'ng, tovarlarning miqdori nomuvofiqligi bo'yicha e'tirozlar qabul qilinmaydi. Sotib oluvchi 30 kun ichida Sotuvchiga qabul qilish dalolatnomasidagi tovarlarni sifati bo'yicha asosli yozma talablarini, shuningdek mustaqil ekspertiza tashkilotining xulosasini taqdim etishga haqli.

2.6. Yetkazib berilayotgan tovarlar davlat standartlar talablariga javob beradigan tayyor, konteynerlarga qadoqlangan bo'lishi kerak, bu tovarlarni tashish va saqlash paytida buzilish yoki shikastlanishdan saqlaydi.

2.7. Mazkur shartnomaning 2.5 bandida ko'rsatilgan tartibda nuqsonli tovarlar yetkazib berilganligi tasdiqlansa, Sotuvchi 30 kun ichida nuqsonli tovarlarni sifatli tovarlar bilan almashtirishi shart.

2.8. Sotuvchining talabiga binoan Sotib oluvchi rad etilgan tovarlarni qaytarishi kerak.

2.9. Rad etilgan tovarlarni almashtirish yoki qaytarish bilan bog'liq barcha harajatlarni Sotib oluvchi to'laydi.

III. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

3.1. Tovarlar Sotib oluvchining omboriga o'zining kuchi bilan yetkazib beriladi.

3.2. Tovarini topshirish, qabul qilish joyi Sotib oluvchining ombori hisoblanadi.

3.3. Tovarini topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 5 ish kunini tashkil qiladi.

3.4. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan mahsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda xisob-varaqni rasmiylashtirish sanasi Sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

3.5. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

IV. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

- 4.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tovarning umumiy narhi **2 330 000,00 sum** (Ikki million uch yuz o'ttiz ming) sumni tashkil qiladi shu jumladan QQS -siz.
- 4.2. Yetkazib berilgan tovar uchun haq to'lash Sotib oluvchi tomonidan ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab shartnoma umumiy qiymatining 30 foiz miqdorda oldindan amalga oshiriladi. Qolgan 70 foizi tovar yetkazib berilgan kundan boshlab 30 kun ichida xisob-varaqga asosan to'lab beriladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 5.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar ushbu shartnoma orqali hamda O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuniga asosan hal qilinadi.
- 5.2. Neustoyka yoki yetkazilgan zararni to'lash taraflarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yetkazib berishning tegishli davrida tovarlarni yetkazib berishni kechiktirish yoki to'liq yetkazib bermaganlik uchun Sotuvchi Sotib oluvchiga qonunda belgilangan tartibda neustoyka to'laydi.
- 5.3. Ushbu shartnomani bajarilishi jarayonida kelib chiqadigan nizolar Toshkent tumanlararo sudida hal etiladi. Sudga da'vo kiritishdan oldin nizo o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo arizani taqdim etish va ko'rib chiqishda tomonlar «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga amal qiladilar.

VI. FORS-MAJOR HOLATLARI

- 6.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 6.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.
- 6.3. Agar fors major holatlari to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, fors major holatlarini boshidan kechirgan tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararni qoplashi shart.

VII. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 7.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.
- 7.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligisiz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxsga berishga haqli emas.
- 7.3. Mazkur shartnoma tomonlar imzolanganidan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.
- 7.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy xisoblanadi.
- 7.5. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor qilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.
- 7.6. Hisob-Shartnoma 2 nushada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nushadan beriladi.
- 7.7. Taraflarning manzili yoki xisob raqamlari o'zgargan xollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

VIII. TARAFLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

SOTUVCHI: OOO «ASIA PHARM LYUKS» Manzil: Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Raximbabaeva ko'chasi, 4-b Telefon: 98 888-88-76 X/R: 2020 8000 4007 8405 6001 AIKB IPAK YULI Chilonzor fililai, Toshkent sh MFO: 01067 INN: 304 961 369 OKED: 46460 Rahbar Zaxriddinov K.A.	SOTIB OLUVCHI: Zangiota tuman Tibbiyot birlashmasi Manzil: Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Mustaqillik ko'chasi Telefon: 70 97 52 254 X/R: 100022860272377073101054003 Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Markaziy bank XKKM MFO: 00014 INN: 200 564 954 IFUT: 86400 Rahbar K. L. Raximov
--	---

IX. YURIDIK XULOSA

Ushbu shartnomada ko'rsatilgan taraflarning javobgarligi, nizolarni hal etish tartibi amaldagi qonunchilik talablariga shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida» gi Qonunga asosan to'g'ri tuzilgan.

Yuriskonsult _____

Yuriskonsult _____



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
ZANGIOTA TUMANI YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

111800, Zangiota tumani, Eshonguzar qo'rg'oni, Mustaqillik ko'chasi, 44-uy.
Tel.: (998 70) 975-33-35, el. pochta: zangiotayurmarkaz@adliya.uz

2022 yil "26" yanvar

UX63601551

Zangiota tumani

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:

• Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Zangiota Tibbiyot birlashmasi va "ASIA PHARM LYUKS" MCHJ o'rtasida tuzilgan tovar yetkazib berish to'g'risidagi №A-63-sonli hisob shartnomasi loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana haqida ma'lumot:

Zangiota tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va Zangiota tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga **24.01.2022** yilda xulosa berish uchun kelib tushdi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



Sh.Karimov